

SOVETLAR TURKISTONDA OLIB BORGAN “QATAG’ONLIK SIYOSATI” NING QURBONLARI

Toshpo’latova Shaxnoza Shuhratovna
Osiyo xalqaro universiteti,
“Ijtimoiy fanlar va texnika fakulteti
Xorijiy til va ijtimoiy fanlar kafedrası o’qituvchisi
Xamidova Marjonabonu Umid qizi
Osiyo Xalqaro universiteti
Ijtimoiy fanlar va texnika fakulteti
Tarix ta’lim yo’nalishi uchinchi bosqich talabasi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada XX asrning 20–30-yillarida O‘zbekistonda sovet hokimiyati tomonidan amalga oshirilgan siyosiy qatag‘onlarning bir qismi sifatida ataylab “to‘qib chiqarilgan” ishlar — xususan “18-lar guruhi”, “qosimovchilik” va “badriddinovchilik” — ning paydo bo‘lishi, mazmuni va oqibatlarini tahlil qiladi. Tadqiqotda ushbu nomlar ostida yuritilgan tergov va sud jarayonlari siyosiy elita, milliy ziyolilar, sud va prokuratura xodimlarini nishonga olgani, ayblovlarning ko‘pincha soxta va propagandaviy asosda ilgari surilgani, natijada yuzlab begunoh insonlarning qamoqqa olinishi, surgun qilinishi yoki o‘ldirilishi aniqlandi.*

Kalit so‘zlar: *18-lar guruhi, Qosimovchilik, Badriddinovchilik, siyosiy qatag‘on, sun‘iy ishlar, milliy ziyolilar, arxivlar, tarixiy adolat.*

Sovet rejimi o‘z hokimiyatini mustahkamlab olgach, uning xususiyatlari tobora oshkora namoyon bo‘la boshladi. Bu holat xususan milliy respublikalardagi rahbar xodimlarga munosabatda yaqqol namoyon bo‘ldi. Qaror topgan ma‘muriy-buyruqbozlik tizimi va uning rahbar o‘zagi hisoblangan Butunittifoq kommunistlar (bolsheviklar) partiyasi — VKP(b) bu paytga kelib “sotsializm asoslari”ni qurishga jiddiy kirishdi hamda jamiyatning barcha sohalarida hukmronlik mavqeyini egalladi. XX asr 20-yillarining Ikkinchi yarmi va 30-yillar boshida O‘zbekiston SSR da "18 lar guruhi", "Inog‘omovchilik", "Qosimovchilik", "Badriddinovchilik", "Milliy ittihodchilar" va "Milliy istiqloлчаilar", "Narkompros" ishi, "Botir gapchilar" va boshqa siyosiy ishlar to‘qilishi natijasida o‘zbek xalqining ko‘plab yetuk farzandlari qatag‘on qilindi. Bu davrda kommunistik partiya saflarini "tozalash" kompartiyasi a'zolarining 25,6 foizi firqadan chiqarildi. Milliy rahbar xodimlari lavozimlaridan chetlatib, ularni "g‘oyaviy" jihatdan tor-mor qilayotgan Sovet rejimi XX asr 20-yillarining oxiriga kelib jismoniy jihatdan yo‘qotishga kirishdi. Bu jihatdan olganda, O‘zbekiston huquq va maorif tizimida o‘tkazilgan qatag‘onlar ayniqsa xarakterlidir.

Markazning tazyiqi bilan 1929-yil 17-fevral—2-martda Samarqandda o‘tkazilgan O‘zbekiston Kommunistik partiyasining IV syezdidan keyin jazo mexanizmi ishga tushirildi. 1927-yilda "Inog‘omov guruhi" fosh etildi. O‘zbekiston SSR xalq maorifi komissari lavozimida ishlagan Rahim Inog‘omovni "mahalliy millatchilik"da ayblab qatag‘on qildilar. Go‘yo u "o‘lib borayotgan milliy burjuaziya himoyachisi" bo‘lgan ekan. Amalda esa Inog‘omov yo‘qsillar

diktaturasi deb nomlangan Sovet hokimiyati milliy mustamlakachilikdan boshqa narsa emasligini kompartiya yuritgan milliy siyosatining shovinistik mohiyatini keskin tanqid qilgan edi. Shuningdek o'zbek xalqiga to'la ozodlik keltirmadi, xalq hamon Rossiya mustamlakasi bo'lib qolgan degan g'oyani ilgari surgan. 1929-yil mart oyiga kelib O'zbekiston SSR Oliy sudining raisi Sa'dulla Qosimov va uning 6 nafar safdoshi qamoqqa olindi. 1930-yilning 25-martidan 21-iyunga qadar Samarqand shahrida SSSR Oliy sudining ko'chma sessiyasida 73 S raqamli ish ko'rib chiqildi. Bu sovet tarixida "Qosimovchilik" ishi deb yuritiladi. Bu vaqtda sud raisi Vasilyev Yujin va prokuror R. Katanyan edi. Sudda O'zbekiston SSR Oliy sudining sobiq raisi Sa'dulla Qosimov boshchiligida 30 ga yaqin sudi va yustitsiya xodimlari ishi ko'rib, ular jinoiy javobgarlikka tortildi, ko'plari otib tashlandi. S. Qosimov va uning tarafdorlari "bosmachilar"ni qo'llab-quvvatlashda, "aksilinqilobchi millatchi tashkilotlar" a'zolari bilan aloqa bog'laganlikda, islom dinini himoya qilishda ayblanib, ularga "Qosimovchilik" yorlig'i berildi. Darhaqiqat, S. Qosimov "bosmachilar"ga xayrixoh bo'lgan, chunki ularni milliy ozodlik va istiqlool uchun kurash jangchilari deb bilgan. M. Abdurashidxonov boshchiligida yashirin faoliyat olib borayotgan "Milliy istiqlool" tashkilotining yig'ilishlarida S. Qosimov va uning sheriklari muntazam qatnashib turgan. Sudda qoralovchi Katanyan S. Qosimov ni taniqli jadidchi U. Asadullaxo'jayevning shogirdi bo'lganligi, sud apparatini esa Munavvarqorining "choyxonasiga" aylantirganlikda ayblaydi. Sovet sudi S. Qosimov, B.Sharipov, N.Alimov, Sipiriddinovni otib o'ldirishga, qolgan 3 nafar kishini 10 yil muddaga qamoq jazosiga hukm qilindi. S. Qosimov guruhi ustidan o'tkazilgan sud jarayoni tamom bo'lgach, 2 yil o'tar-o'tmas yana sovetlar boshqa ishni ko'rib chiqishadi.

1932-yil 5-may—15-iyunda Toshkent shahrida SSSR Oliy sudining sobiq prokurori Shamsuddin Badriddinov ba uning 5 nafar safdoshi ustidan sud jarayoni amalga oshirildi. Bu gal ham prokuror armani R. Katanyan bo'lib, u turkiy xalqlarga nisbatan nafrati bilan tanilgan edi. Shamsuddin Badriddinovga "Milliy ittihad" tashkiloti a'zolari va "bosmachilar" bilan aloqa bog'lagan Munavvar qori va S. Qosimovning yaqin do'sti bo'lgan degan ayblar qo'yildi. Shamsuddin Badriddinov avval otishga hukm qilinib, so'ngra o'lim hukmi 10 yil qamoq jazosi bilan almashtirildi. Uning 5 nafar safdoshi ham uzoq muddatli qamoq jazosiga hukm qilindi. 1930-yilda "Ko'rkalamush" guruhi bahonasida qanchadan qancha begunoh kishilar qatag'on qilindi. Bu qanaqa guruh edi? 1930-yilning fevralida Farg'ona politexnikumida chiqadigan "Pedagog" nomli gazetada "Ko'rkalamush" sarlavhasi ostida bir tanqidiy maqola bosilgan edi. Bu maqolada tanqid qilingan shaxsning tashqi ko'rinishida "kalamush"ga o'xshash belgilar bo'lgan ekan. O'zini haqoratlangan deb his qilgan mazkur shaxs achchig'iga chiday olmay, maqolani ko'tarib to'g'ri Farg'ona shahr siyosiy boshqarmasiga olib boradi. U yerdagi mas'ul mutasaddi xodimlarga — "Texnikumda rahbar Abdurahmon G'oiy boshliq aksilinqilobchilar sovetlar qarshi gazeta chiqarmoqda, mana o'qing"—deydi. Ana shu oddiy devoriy gazeta kichikkina maqolada Sovet hukumatiga qarshi kurash olib borayotgan siyosiy guruh to'g'risida uydirma va to'qima ish tayyorlanadi. Mazkur "jinoiy" ish bo'yicha Abdurahmon G'oiy, Vali Burxon, Abdushukur Hakimov, To'razoda Nuriddin va boshqalar "sovetlarga qarshi", "panturkizm", "panislomizm", a'zolari sifatida qamoqqa olinib, qatag'on qilinadilar. 1929-yil 5-boyabrda Toshkentda ma'rifatparvar Munavvar qori Abdurashidxonov boshchiligida 38 nafar kishi qamoqqa olindi. Oradan ko'p o'tmay qamoqqa olinganlar soni 87

kishiga yetdi. Ularga "Milliy ittihad" va "Milliy istiqloq" tashkilotlarining a'zolari degan ayb qo'yildi. Tergov jarayoni keyinchalik Moskvaga ko'chirildi. Bu holat sovet rejimining jadidlar "millatchiligini fosh qilishga jon jahdi bilan kirishganligidan dalolat beradi. 1931-yil 25-aprelda Moskvada bo'lib o'tgan sud majlisida. Munavvar qori boshchilidagi millatning 15 nafari otib o'ldirishga, qolgan 72 kishi esa uzoq muddatli qamoq jazosiga hukm qilindi. O'zbek xalqining 15 nafar farzandi Moskva atrofida otib tashlandi. Qamoqdan ham deyarli hech kim Toshkentga qaytib kelmadi. 1930 yil yanvar oyida OGPU tomonidan go'yoki "Milliy ittihad" aksilinqilobiy tashkilotining Farg'ona bo'limi "Botir gapchilar" tashkiloti fosh etiladi. A.Zohiriyning ham "Botir gapchilar" tashkilotining a'zosi degan bahona bilan Qo'qon shahri, Xo'jand ko'chasi 478-uydan qamoqqa oladilar. A.Zohiriyning anketasiga ko'ra bu paytda uning oilasi turmush o'rtog'i Malika, qizi Mohira, o'g'illari Darxon va Najiblardan iborat deb bo'lgan. Shu o'rinda "Botir gapchilar" a'zosi sifatida qamoqqa olingan Ashurali Zohiriyning ayrim shogirdlari haqida ham to'xtalib o'tsak. Yoqub Amonov avval 3 yil qorixonada o'qib hofizi Qur'on bo'lgan. So'ng 1916 yilgacha rus-tuzem maktabida, 1917 yildan Namanganda real oliy maktabida o'qigan. 1918-19 yillar Qo'qonda A.Zohiriyga shogird tushadi. 1922 yildan Farg'ona muzofot ijroqo'mida, 1923 yildan viloyat partiya qo'mitasida tarjimonlik qilgan. 1926 yil apreldan "Yangi Farg'ona" gazetasi A.Zohiriy bilan birga ishlay boshlaydi... Nosir Erkin 1899 yil Qo'qonda o'qituvchi oilasida dunyoga kelgan. Avval otasining qo'lida, so'ng mashhur Ibrohimjon domlaga qatnab, arab, fors tillarini o'rgangan. Keyin A.Zohiriyning muallimlar tayyorlov kursida o'qib, 1918-25 yillardavomida jadid maktabida dars beradi. 1925 yildan esa "Yangi Farg'ona" gazetasiga ishga kiradi... A.Zohiriy 1930 yil 28 fevral kuni so'roqda: "Temur" degan aksilinqilobiy tashkilot bo'htondan boshqa narsa emas. Lekin, uning o'zagi deb ko'rsatilayotgan zotlar avval Qo'qon musulmon seminariyasida keyin Qo'qon muallimlar bilim yurtining asosini tashkil etadigan ziyolilardir. Ular xalq maorifini rivojlantirish, jamiyatda madaniyat ma'naviyani o'stirish, zamonaviy bilimdon kadrlarni tayyorlashni o'z vazifasi deb biladigan insonlardir... Farg'ona pedtexnikumida "Ko'rkalamush" degan maxfiy gazeta haqida eshitmaganman. Lekin, senlar keltirayotgan Toji Rahmon degan kimsani bilardim. Biz uni "almansibati" (GPUodami) deb, deyarli aloqa qilmas edik. Men senlar aytayotgan aksilinqilobchilardan bir ikkitasini ko'rganman ham. Bosmachilik avj olgan pallalarda bir Ivan degani kelib, mendan nashr ishini rivojlantirishda yordam so'radi. Ko'raman, deb qo'ydim. Keyin uni sovet tashkilotlarining rasmiy tadbirlarida ko'rardim. Unga o'xshagan yana bir ikkitasi bor. Odamlarning ichiga kirib turli fitnalarni topib yurishardi, ammo ularni hech kim tinglamagan. Ularga o'tavering deganmiz, deydi. Ashurali Zohiriy uzoq davom etgan so'roqlardan aniq xulosaga keldiki, bu fitnaning ortida aynan sho'ro davlatining o'zi turibdi. Eng dahshatlisi, SSSR MIK Prezidiumining 1927 yil 9 iyundagi qarori bu qatli om uchun asos bo'ldi. Go'yoki, A.Zohiriy rahbarligidagi "Botir gapchilar" tashkiloti a'zosi deb farg'onalik 15 nafar taraqqiyparvar yoshlar bir yildan ortiq vaqt davomida Farg'ona turmasida og'ir bir sharoitda saqlandi.

1930 yil 28 may kuni so'roqda: "Botir gapchilar" degan tashkilot bo'lsa, bu Abdulla Qahhorning uyida bo'lgan yig'ilishda tug'ilgan bo'lsa kerak. Men ham shu kun uning ro'yxatiga kirib qolgandirman-da. O'shanda u xuddi yoddan aytayotgandek qandaydir tashkilot va uning programmasi haqida so'zlay boshlagan edi. Keyin Umar Homidnikida ham qandaydir programmani o'qiy ketgan edi. Demak, "Botir gapchilar" bu A.Qahhorning

miyasida tuzilgan va uning g'oyalaridir. Shunday bo'lsa, Lutfulla Olimiy, Abdulla Rahmatzoda, Muxtorlarni qamoqdan ozod qilishlaringga to'g'ri keladi. Axir ular bu tashkilot (gapni nazarda tutayapti)ga a'zo emasdi, deydi. Tabiiyki, GPU ularning birortasini ozod qilmadi. 1931 yil 25 aprel OGPU qarori bilan Ashurali Zohiriy, Lutfulla Olimpiylarga nisbatan otuv hukmi 10 yillik konslager bilan almashtirildi. Yaqub Omon, Nosir Erkinlar 10 yillik Sevkayga surgunga, Abdulla Qahhor 5 yil konslagerga buyurildi. Biroq... A. Zohiriy 1936 yil jazoni muddatidan oldin o'tab qaytadi. Oradan hech qancha o'tmay 1937 yil 5 sentabr kuni O'zSSR IIXK Zagvozdin qarori bilan Qo'qon shahar maorif boshqarmasi o'qituvchisi bo'lgan A. Zohiriy panturkist, aksilinqilobiy "Milliy ittihad" tashkiloti a'zosi, 1930 yil "Botir gapchilar" tashkiloti a'zosi, qamoqdan qaytgach Abdulhamid Cho'lpon, G'ozir Yunus kabiziyolilar bilan aksilinqilobiy tashkilot tuzgan deb yana qamoqqa olinadi. Shu kunning o'zida uning Qo'qon shahri, Stalin ko'chasi, 193-xonadonida tintuv o'tkaziladi. 1937 yil 7 sentabr kuni A. Zohiriy tomonidan tasdiqlangan so'roq bayonnomasida u o'zining "Milliy ittihad" tashkilotiga 1921 yilda kirgani, tashkilotda Abbosxo'ja Kalonxo'jaev (1934 yil vafot etgan), Obid chatoq, Miyon Qudrat, Abdullajon Karimovlarning a'zo bo'lganini "tan oladi". Shuningdek, 1929 yil "Botir gapchilar" aksilinqilobiy tashkiloti tuzilgani va u ham "Milliy ittihad" tipidagi tashkilot bo'lganini yozadi. Unda Maxsumov (Qo'qon okrujkom), A. Karimov, Sulton Saydalini, L. Olimiy va boshqalar a'zo bo'lib, ulardan o'zi - A. Zohiriy, Mansur Erkin, Yaqub Omon, Umar Hamidov, Karim Ortigboev, Nuriddin Ermatov, Muhiddin Husayinov, Abdulla Xolmatov, To'lqin Parpiev, Mirza Abdulla Soliev, Muxtor Muhammedov, Abdulla Raxmatzoda, Lutfulla Olimpiylar 1930 yil qamoqqa olindi. Shuningdek, 1934 yil qamoqdan qaytib kelgach, Abdulhamid Cho'lpon, G'ozir Yunuslarni qayta topganini aytadi. Albatta, keltirilgan bayonnoma A. Zohiriyning fikrini yoki tergovchi Trig'ulovning tasavvurlari maxsulimi bugun aniq fikr aytilish qiyin. 1937 yil 20 oktabr kuni Matveev va Trig'ulovlar tomonidan tayyorlangan qarorga muvofiq A. Zohiriyga yana bir necha ayblovlar bilan O'zSSR JKning 60, 67-moddalarini qo'llab qaror chiqaradi. Ashurali Zohiriyning ayblov bayonnomasi 1937 yil 21 dekabr kuni Leonov tomonidan tasdiqlandi va u O'zSSR JKning 66-, 67-moddalari bilan ayblanadi. 1937 yil 4 dekabr kuni IIXK qoshidagi "Uchlik" sudi Ashurali Zohiriyning otuvga hukm qildi va noxolis hukm 1937 yil 28 dekabr kuni ijro qilindi. Stalin shaxsiga sig'inish yillari O'zbekiston xalqlari 1937-1939-yillarning o'zidagina O'zbekiston SSR ichki ishlar xalq komissarligining "uchlik"lari tomonidan 41 ming nafardan ko'proq kishi qamaldi. Shulardan 37 ming nafardan ko'prog'i sudlandi, 6 ming 920 ming kishi otib tashlandi. Umuman 1939-1953-yillarda 61 ming 799 kishi qamaldi. Shulardan 56 ming 112 ming turli muddat bilan ozodlikdan mahrum etildi. 7 ming 100 kishi otib tashlandi. Qatag'onchilik siyosati Stalin, Ejoy va Vishinskiy imzosi bilan maxfiy ko'rsatma yozilgandi. "Qabohat saltanati" risolasi ta'kidlashicha ko'rsatmada har bir respublika va viloyat uchun qancha kishi qamoqqa olinishi kerakligini foiz hisobida aniq ko'rsatilgan. Yuqorida aytilganlari ya'ni qatag'on qilinganlari 1925-1936-yillardagi atigi 4 foiz etib belgilandi. Sobiq Ittifoqning o'sha galdagi aholisiga nisbatan hisoblaganda, bu taxminan bir vaqtda 5 mln kishining yostig'ini quritish demakdir. Xulosa qilib aytganda qatag'onchilik siyosati — bu nafaqat bir davr fojeasi, balki butun bir avlodning og'rig'idir. Sovet tuzumi o'z hokimiyatini mustahkamlash yo'lida inson qadrini poymol qildi, xalqning eng ziyoli, eng fidoyi farzandlarini "xalq dushmani" degan tang'a bilan yo'q qildi. "18-lar guruhi", "qosimovchilik",

“badriddinovchilik”, “Botir gapchilar” kabi soxta ishlar, aslida millatning ma’naviy ildizlarini kesishga, ozod fikrni yo‘qotishga qaratilgan edi. Ashurali Zohiriy, Abdulla Qahhor, Cho‘lpon, Fitrat, Usmon Nosir va boshqa yuzlab ma’rifatparvarlarning qismati bu siyosatning qanchalik shafqatsiz bo‘lganini yaqqol ko‘rsatadi. Ularning aybi faqat bitta edi — xalqni uyg‘otish, bilim va adolat yo‘lida xizmat qilish. Ammo o‘sha zulmatli yillarda haqiqat so‘zi jinoyat, millatni sevish xiyonat deb baholandi. Bugun ularning nomi oqlangan, xotirasi e‘zozlanmoqda. Ammo biz ularning ruhiy merosini unutmasligimiz, tarixdan saboq olishimiz, inson qadrini eng oliy qadriyat deb bilishimiz kerak. Chunki qatag‘on qurbonlarining har biri – ozodlik, adolat va millat g‘ururi yo‘lida qurbon bo‘lgan insondir. Qatag‘on siyosati bizni ogohlikka, birlikka va tarixiy xotiraga sodiq bo‘lishga chorlaydi. Chunki o‘tmishni bilmagan millatning kelajagi bo‘lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Хошимов, С. (2021). XX асрнинг 20-30 йилларида миллий ташкилотлар таркибида кдтагон кдлинган андижонликлар. Общество и инновации, 2(2), 26-33.
2. Doniyev, S. I. O. G. L. (2020). O 'zbekistonda «paxta ishi», «o 'zbek ishi» kampaniyalari boshlanishi va uning Qashqadaryo viloyatida amalga oshirilishi. Science and Education
3. Doniyev, S. I. O. G. L. (2020). O 'zbekistonda «paxta ishi», «o 'zbek ishi» kampaniyalari boshlanishi va uning Qashqadaryo viloyatida amalga oshirilishi. Science and Education
4. Шамсутдинов Рустамбек. Узбекистонда советларнинг кулокуташтириш сиёса ти ва унинг фожеали ок,ибатлари. — Т.: «Шарк», 2001. — 368б.
5. R. Xoliqova Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida (“O‘zbekiston tarixi” fanidan o‘quv qo‘llanma) Toshkent - 2017
6. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. — Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
7. Karimov Sh. O‘zbekiston tarixi (XX asrning 20-90-yillari). — Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
8. Yangi O‘zbekiston tarixi. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022.
9. Nabijon Boqiy. Qathnoma. —Nashriyot: «Trust and support» 2023